

4/2025,  
iyul-  
avgust  
(№ 00078)



## **PAXTA TOZALASH KORXONALARINI TASHKIL ETISH VA TUGATISH JARAYONLARIDA MOLIVAVIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Murodov Orif Jumayevich**

*Renessans ta'lim universiteti. t.f.d., professori. 100071, Toshkent shahar, Shayxontohur tumani*

**Email:** [orifakadem@mail.com](mailto:orifakadem@mail.com)

**Orcid:** <https://orcid.org/0000-0002-7016-8680>

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss4/705](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss4/705)

### **Annotatsiya**

Maqolada O'zbekiston Respublikasi paxta tozalash sanoatida amalga oshirilayotgan me'yoriy-huquqiy islohotlar, davlat mulkini boshqarish tizimining modernizatsiyasi, hamda korxonalarini tashkil etish va tugatish jarayonlarida qo'llanilayotgan moliyaviy mexanizmlarning takomillashuvi tahlil qilinadi. Tadqiqotda 2017–2024-yillarda “O'zpxatasanoat” tizimida amalga oshirilgan moliyaviy-iqtisodiy islohotlar, ularning paxta tarmog'ining rentabelligi, shaffofligi va investitsion jozibadorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlari (“E-Moliya”, “1C–Paxta”) orqali korxonalarining moliyaviy nazoratini kuchaytirish va ularni samarali tashkil etish mexanizmlari taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** paxta tozalash sanoati, moliyaviy mexanizm, davlat-xususiy sheriklik, raqamli audit, korxonalarini tashkil etish, korxonalarini tugatish, amortizatsiya siyosati, likvidlik, rentabellik, E-Moliya, 1C–Paxta, investitsion jozibadorlik.

### **Аннотация**

В статье анализируются проводимые в Республике Узбекистан нормативно-правовые реформы в хлопкоочистительной промышленности, модернизация системы управления государственной собственностью, а также совершенствование финансовых механизмов, применяемых в процессах создания и ликвидации предприятий. В исследовании научно обосновано влияние финансово-экономических реформ, реализованных в 2017–2024 годах в системе “O'zpxatasanoat”, на показатели рентабельности, прозрачности и инвестиционной привлекательности хлопковой отрасли. Кроме того, предложены механизмы повышения эффективности управления предприятиями и усиления финансового контроля через внедрение цифровых систем (“E-Moliya”, “1C–Paxta”).

**Ключевые слова:** хлопкоочистительная промышленность, финансовый механизм, государственно-частное партнёрство, цифровой аудит, создание предприятия, ликвидация предприятия, амортизационная политика, ликвидность, рентабельность, E-Moliya, 1C–Paxta, инвестиционная привлекательность.

### **Abstract**

The article analyzes the regulatory and legal reforms implemented in Uzbekistan's cotton-cleaning industry, the modernization of the state property management system, and the improvement of financial mechanisms used in the processes of enterprise establishment and liquidation. The study scientifically substantiates the impact of financial and economic reforms carried out in the

“O‘zpxatasanoat” system during 2017–2024 on the profitability, transparency, and investment attractiveness of the cotton sector. Furthermore, mechanisms for enhancing financial control and improving enterprise management efficiency through digital systems (“E-Moliya”, “1C–Paxta”) are proposed.

**Keywords:** cotton-cleaning industry, financial mechanism, public–private partnership, digital audit, enterprise establishment, enterprise liquidation, amortization policy, liquidity, profitability, E-Moliya, 1C–Paxta, investment attractiveness.

### **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida paxta tozalash sanoati strategik ahamiyatga ega sohalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda bu sohadagi korxonalarda moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va korporativ barqarorlikni ta‘minlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu munosabat bilan paxta tozalash korxonalarini tashkil etish va tugatish jarayonlarida amal qiladigan moliyaviy mexanizmlarni chuqur ilmiy tahlil qilish zaruriyati tug‘ilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirish jarayonida korxonalarining tashkil etilishi va ularning barqaror faoliyat yuritishi masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda davlat rahbarining 2017–2024-yillar davomida qabul qilgan bir qator qaror va farmonlarida — jumladan, PF–4947-sonli “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”, PQ–4611-sonli “Sanoat sohalorida moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy faolligini oshirish chora-tadbirlari”, hamda PQ–3818-sonli “Davlat aktivlarini boshqarish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlarida korxonalarini tashkil etish, qayta tuzish va tugatish jarayonlarini bozor tamoyillari asosida amalga oshirish vazifalari belgilangan [1].

Iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida korxonalarini tashkil etish va ularning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish – iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va ish bilan ta‘minlash masalalari bilan uzviy bog‘liqdir [2].

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Paxta tozalash korxonalarini tashkil etish va tugatish jarayonlarida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish masalasi bo‘yicha ilmiy manbalar tahlili ushbu yo‘nalishning nazariy va amaliy asoslari ko‘plab mahalliy hamda xorijiy tadqiqotchilar e‘tibor markazida ekanini ko‘rsatadi. Adabiyotlarni tahlil qilish shuni anglatadiki, korxonalar faoliyatining samaradorligi, barqarorligi va raqobatbardoshligi moliyaviy boshqaruv mexanizmlarining qay darajada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganiga bevosita bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-son Farmoni — “O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” (2017-yil 7-fevral) mamlakat iqtisodiy siyosatining yangi bosqichini boshlab berdi [1]. Ushbu hujjatda iqtisodiyotning real sektorida, jumladan, paxta-tozalash sanoatida moliyaviy boshqaruvni modernizatsiya qilish, raqobatbardoshlikni oshirish va xususiy sektor ulushini kengaytirish vazifalari aniq belgilangan. Mazkur Farmon iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasini liberallashtirish, korxonalarining tashkiliy-huquqiy maqomini mustahkamlash hamda ularni bozor mexanizmlariga moslashtirish uchun konseptual asos bo‘ldi.

Shuningdek, Prezidentning PQ–3133-son Qarori (2023-yil 18-fevral) \**“Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”*\*gi hujjati paxta-tozalash tarmog‘i uchun bevosita amaliy ahamiyat kasb etadi [2]. Qaror asosida ishlab

chiqarish sub'yektlariga soliq, kredit va investitsiya imtiyozlari taqdim etildi, bu esa korxonalar faoliyatida likvidlikni ta'minlash, aylanma mablag'lar yetishmovchiligini kamaytirish hamda investitsion muhitni yaxshilashga imkon berdi. Ayniqsa, xususiy sektor ishtirokidagi paxta-tozalash korxonalari uchun imtiyozli moliyalashtirish mexanizmlarining joriy etilishi tarmoqning moliyaviy mustahkamligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Murodov va Rajabovning ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqarish jarayonida texnologik modernizatsiya bilan bir qatorda moliyaviy mexanizmlarning muvofiqlashtirilishi zarurligi ta'kidlanadi [3]. Ular tomonidan ishlab chiqilgan eksperimental tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish jarayonidagi tebranish va yuklamalar samaradorlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiladi. Bunday holatda texnik-iqtisodiy omillarni moliyaviy boshqaruv bilan uyg'unlashtirish korxonaning umumiy rentabelligini oshiradi.

“Korxonalar to'g'risida”gi Qonun (2020-yil) [4] korxonalarining tashkil etilishi, faoliyat yuritishi va tugatilishi jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatdir. Unda korxonalarining moliyaviy javobgarligi, aktivlar va passivlarni baholash, hamda bankrotlik tartib-taomillari belgilangan. Aynan ushbu huquqiy asoslar korxonalarda moliyaviy mexanizmlarni to'g'ri tashkil etish, ularning shaffofligini ta'minlash hamda iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Karimov va Jo'rayev tomonidan yozilgan “Korxonalarni moliyaviy boshqarish nazariyasi va amaliyoti” asarida korxonalar moliyaviy tizimining ichki tuzilmasi, kapital harakati va investitsiya oqimlarini samarali boshqarish tamoyillari batafsil yoritilgan [5]. Mualliflar fikricha, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun korxonalar aktivlari va majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikni saqlash, kapital tuzilmasini diversifikatsiya qilish, likvidlikni boshqarish hamda moliyaviy xavf tahlilini muntazam amalga oshirish zarur.

Murodov O.J. tomonidan tayyorlangan “Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish omillari” nomli maqolada islohotlar, sertifikatlash va iste'molchi talablari integratsiyasi orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan [6]. Muallif korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va sifat menejmenti tizimlarini joriy etish zarurligini asoslaydi.

“O'z paxtasanoat” AJ tomonidan 2018–2024-yillar oralig'ida e'lon qilingan hisobotlarda paxta-tozalash tarmog'ida amalga oshirilgan investitsion loyihalar, modernizatsiya dasturlari va raqamli boshqaruv tizimlarining moliyaviy natijalarga ta'siri tahlil qilingan [7]. Ularning ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yildan boshlab “E-Moliya” tizimi joriy etilgach, korxonalarining moliyaviy hisobotlari shaffoflashgan, foyda rentabelligi 113 foizga oshgan va aylanma mablag'lar aylanish davri 39 foizga qisqargan.

Jahon bankining “Uzbekistan: Industrial Modernization and Private Sector Development Report” (2023) nomli hisobotida mamlakatda sanoat tarmoqlarini transformatsiya qilish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash masalalari keng yoritilgan [8]. Unda O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy inkluziya, korxonalarining raqamli boshqaruv tizimlariga o'tishi va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining kengayishi paxta-tozalash sanoati uchun strategik ahamiyat kasb etishi ta'kidlangan.

Yuqoridagi tahlillardan xulosa qilish mumkinki, paxta tozalash korxonalarini tashkil etish va tugatish jarayonlarida moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, bu yo'nalishda nazariy asoslar (Karimov, Jo'rayev, Murodov), me'yoriy-huquqiy hujjatlar (PF-4947, PQ-3133) hamda xalqaro tavsiyalar (Jahon banki

hisobotlari) o‘zaro uyg‘unlikda rivojlanmoqda. Ayniqsa, raqamli boshqaruv, moliyaviy shaffoflik va korporativ barqarorlik tamoyillarini integratsiya qilish — paxta-tozalash sanoati uchun kelgusida samaradorlikni oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, qiyosiy va statistik tahlil usullariga asoslangan. Tizimli yondashuv orqali paxta tozalash korxonalarining tashkil etish, faoliyat yuritish va tugatish bosqichlarida moliyaviy mexanizmlar o‘zaro bog‘liq tizim sifatida o‘rganildi. Normativ-huquqiy tahlil yordamida Prezident farmon va qarorlari (PF–4947, PQ–3133) hamda “Korxonalar to‘g‘risida”gi Qonun asosida me‘yoriy baza baholandi. Statistik usullar yordamida 2018–2024-yillar “O‘zpxatasanoat” AJ hisobotlari ma‘lumotlari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil orqali davlat va xususiy sektordagi korxonalar moliyaviy natijalari solishtirildi. Tadqiqot natijalari asosida “E-Moliya” tizimi samaradorligi, kapital tuzilmasi va kredit mexanizmlarining takomillashtirilish yo‘nalishlari aniqlangan.

### **Tahlil va natijalar**

Iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishlab chiqarish quvvatlarining o‘ssishi faqat mavjud korxonalar faoliyatini samarali tashkil etish bilan cheklanmay, balki yangi korxonalarni tashkil etish va ularni to‘g‘ri moliyaviy boshqarishga ham bog‘liqdir. Bunday tashabbuslar, odatda, bozordagi ehtiyojlar, resurslar imkoniyatlari va mahsulotga bo‘lgan talab asosida amalga oshiriladi.

Yangi korxonalar tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- korxonalar tashkil etish g‘oyasining paydo bo‘lishi;
- muassislar va ta‘sischilarni tanlash;
- bozor tahlili orqali mahsulotga talabni o‘rganish;
- moliya manbalarini aniqlash va ta‘sis hujjatlarini tayyorlash;
- biznes-rejani ishlab chiqish;
- davlat ro‘yxatidan o‘tish, soliq organlarida hisobga qo‘yish va moliyaviy hisoblarni ochish.

“Korxonalar to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, har qanday korxonalar mulk egasi yoki uning vakolatli organi tomonidan ta‘sis etiladi va davlat ro‘yxatidan o‘tgan paytdan boshlab huquqiy shaxs maqomini oladi [3].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, korxonani tashkil etishda moliyaviy barqarorlik va investitsion rejalashtirish yetarli darajada hisobga olinmagan taqdirda, u qisqa vaqt ichida likvidlik muammolariga duch keladi, majburiyatlarini bajara olmaydi va bankrotlik holatiga tushib qoladi. Shu sababli, tashkil etish bosqichidanoq korxonaning moliyaviy mexanizmlarini samarali yo‘lga qo‘yish, resurslar balansini aniqlash va risklarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

**1-jadval.**

### **Korxonani tashkil etishning asosiy maqsadlari**

Korxonani tashkil etishdan asosan quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:
<b>1. Iste‘molchilar talab qilayotgan mahsulot ishlab chiqarish va foyda olish</b>
<b>2. Ish bilan ta‘minlanmagan aholini mehnat jarayoniga jalb qilish</b>
<b>3. Mavjud resurslardan samarali foydalanish</b>

#### 4. Fan-texnika yutuqlari asosida yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish

#### 5. Hamkorlik va kooperatsiya orqali raqobatbardosh sanoat tuzilmasini shakllantirish

Shu bilan birga, korxonalar faoliyatining tugatilishi ham iqtisodiy tizimda tabiiy jarayon bo'lib, u moliyaviy samarasizlik, bozordagi o'zgarishlar yoki texnologik omillar bilan bog'liq bo'ladi. Bu jarayonlarda moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish – aktivlar taqsimoti, qarz majburiyatlarini yopish va ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhimdir.

Korxonani tashkil etish – iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning asosiy elementlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarishni mustahkamlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va bozor muhitini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. Korxonalar tashkil etilgandan keyin uning faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish va moliyaviy mexanizmlarini samarali shakllantirish – barqaror iqtisodiy o'sishning kafolatidir [4].

Buning uchun albatta iqtisodiy siyosatda yangi korxonalarni qo'llab-quvvatlash choralari juda yuqori darajada ko'rib chiqilmoqda, jumladan O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan so'nggi yillarda yangi korxonalar faoliyatini tashkil etish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.


Xususan, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish va ma'muriy to'siqlarni qisqartirish bo'yicha:

- 2017-yilda tadbirkorlarning o'z faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq sarf-xarajatlarini kamaytirish maqsadida bir qator xizmatlar bo'yicha to'lovlar sezilarli darajada qisqartirildi;
- Arxitektura va rejalashtirish hujjatlarini olish narxi 4 barobarga;
- Loyiha-smeta hujjatlarini ekspert tekshiruvdan o'tkazish to'lovi 2,5 barobarga;
- Kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish qiymati 2 barobarga pasaytirildi.

Bundan tashqari, Prezidentning PQ–3775 (2018-y.) “Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish to'g'risida”gi qarori bilan korxonalarni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlari raqamlashtirildi va to'liq “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” orqali amalga oshirila boshlandi va buni amalda guvohi bo'lib turibmiz. Bu esa yangi biznes subyektlarini tashkil etishda vaqt va moliyaviy resurslarni tejashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birgalikda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ro'yxatdan o'tish va to'lovlarning optimallashtirilishi nimalarni xalq uchun yengillashtirdi. Bu albatta tadbirkorlik faoliyatini boshlash jarayonida ro'yxatdan o'tish shartlari, to'lov miqdorlari va byurokratik talablarning kamaytirilishi — aholining iqtisodiy faolligini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi [5].

Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ro'yxatdan o'tish va to'lovlarning optimallashtirilishi quyidagi 1-rasmda keltirilgan.

O‘zbekistonda yangi korxonalar tashkil etish jarayonlarining soddalashuvi (2009–2024)



**1-rasm. O‘zbekistonda yangi korxonalar tashkil etish jarayonlarining soddalashuvi (2009–2024)**

**Bu yerda:**

- Ko‘k chiziq — ro‘yxatdan o‘tish uchun ketgan kunlar soni,
- Qizil ustunlar — to‘lov miqdori (so‘mda).

Vaqt 14 kunda → 1 kungacha qisqargan,

To‘lovlar esa 200 000 → 34 000 → 0 / 340 000 so‘m diapazonida tushgan yoki qayta ko‘rib chiqilgan.

Diogrammadan ko‘rinib turibdiki, 2009–2024-yillar davomida yangi korxonalar tashkil etish jarayonlari sezilarli darajada soddalashdi, ro‘yxatdan o‘tish vaqti 14 kundan 1 kungacha qisqardi, to‘lov miqdorlari esa o‘n barobar kamaydi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 40 foizdan 56 foizgacha oshishiga sabab bo‘ldi.

Yaratilgan qulay shart-sharoitlar paxta tozalash sanoatida me‘yoriy-huquqiy islohotlarning ahamiyati o‘laroq, moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘nalishlarini ochib berdi. O‘zbekiston iqtisodiyotida paxta tozalash tarmog‘i strategik ahamiyatga ega bo‘lib, u qishloq xo‘jaligi va sanoat o‘rtasidagi mulk, moliya va resurs aloqalarini ta‘minlaydigan asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. Shu sababli so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tadbirkorlikni yengillashtirish va mulk munosabatlarini raqamlashtirish islohotlari paxta tozalash korxonalarini faoliyatiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatmoqda [6].

Ya‘ni paxta tozalash korxonalarida davlat mulkini boshqarish tizimining modernizatsiyasi qilinib 2017–2024-yillar davomida “O‘zpxatasanoat” tizimidagi korxonalar davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o‘tkazildi va ularni xususiy sektor ishtirokida qayta tashkil etish jarayoni boshlandi.

**Bu jarayonda:**

- 2020-yilda paxta tozalash korxonalarining 70 foizi xususiy sheriklik asosida qayta tashkil etildi,
- 2022-yilda esa davlat ulushi saqlangan korxonalarda raqamli boshqaruv tizimi va “E-Moliya” platformasi joriy etildi.

Natijada paxta xomashyosini qabul qilish, tozalash va saqlash jarayonlari avtomatlashtirildi, bu esa aylanma mablag‘lar va soliq to‘lovlarini shaffoflashtirdi. Bunda albatta moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish zaruriyati paydo bo‘ladi [7].

Iqtisodiyotdagi umumiy tadbirkorlik islohotlari paxta tozalash sohasida quyidagi moliyaviy islohotlarni amalga oshirish zaruriyatini ko‘rsatdi:

### **1. Tashkil etish bosqichida kapital strukturasi qayta ko‘rib chiqish.**

Korxonalar ta‘sis bosqichida ustav kapitali va investitsiya manbalarining tarkibini aniq belgilash zarur. Amalda 2023-yil yakuniga ko‘ra paxta tozalash korxonalari aktivlarining 58 foizi aylanma mablag‘lar, 42 foizi esa asosiy vositalarga to‘g‘ri kelgan. Bu disbalans moliyaviy barqarorlikni susaytiradi.

### **2. Amortizatsiya siyosatini yangilash.**

Paxta tozalash uskunalari (CP-6, CS-6, CL-3 turlari)ning amaldagi xizmat muddati 20 yildan oshgan bo‘lib, ularning amortizatsiya qiymati bozor qiymatidan 3-4 barobar past hisoblanadi. Bu holat moliyaviy hisobotda aktivlarning real baholanmasligiga sabab bo‘ladi.

### **3. Kredit mexanizmlarini optimallashtirish.**

Xususi sektorga o‘tgan korxonalar uchun aylanma mablag‘larni moliyalashtirishda tijorat banklari orqali beriladigan kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi 18–20 foiz darajasida saqlanmoqda. Bu esa korxonalarining likvidlik salohiyatini cheklaydi. Shu bois 2024-yilda “PaxtaInvest” aksiyadorlik jamiyati orqali imtiyozli moliyalashtirish fondi tashkil etildi.

### **4. Inventarizatsiya natijalarini moliyaviy rejalashtirishga integratsiya qilish.**

2024-yilda o‘tkazilgan inventarizatsiya natijasida 187 ta paxta tozalash binolari va 325 ta yordamchi inshoot foydalanilmagan holda turgani aniqlandi. Bu obyektlarni qayta faollashtirish hisobidan yiliga 15–20 milliard so‘m qo‘shimcha qiymat yaratish imkoni bor [8].

Paxta tozalash sanoatida normativ-huquqiy islohotlarning amaliy natijalariga to‘xtaladigan bo‘lsak.

Moliyaviy va tashkiliy islohotlar paxta tozalash sohasida quyidagi aniq natijalarni berdi:

**2-jadval.**

**Paxta tozalash korxonalarining moliyaviy natijalari (2018–2024)**

Ko‘rsatkich	2018-yil	2024-yil	O‘sinh (%)
<b>Foyda rentabelligi</b>	6,8 %	14,5 %	+113 %
<b>Aylanma mablag‘ aylanishi (kun)</b>	142 kun	86 kun	–39 %
<b>Elektr energiyasi sarfi (1 tonna paxta uchun)</b>	22,4 kVt/soat	16,8 kVt/soat	–25 %
<b>Moliyaviy hisobotlarning shaffoflik darajasi</b>	45 %	78 %	+33 %

Bu ko‘rsatkichlar shundan dalolat beradiki, sohaga kiritilgan raqamli hisob va moliyaviy nazorat tizimlari (xususan, “E-Moliya” va “1C–Paxta”) orqali korxonalarining faoliyati shaffoflashdi, aktivlar qiymati aniq baholana boshladi va bu asosda investitsion ishonch oshdi. Paxta tozalash sanoatida tadbirkorlikni yengillashtirish va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish jarayonlari iqtisodiyotdagi institutsional o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq.

So‘nggi yillarda qabul qilingan qarorlar natijasida:

- davlat mulkidan samarali foydalanish darajasi oshdi;
- korxonalarining moliyaviy barqarorligi mustahkamlandi;
- aylanma kapital tezligi ortib, likvidlik darajasi yaxshilandi;
- investitsiyaviy muhitda davlat–xususiy sheriklik asosidagi loyihalar ulushi kengaydi.

### **Xulosa va takliflar**

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, paxta tozalash sanoatida korxonalarini tashkil etish va ularning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy natijalardan ma‘lum bo‘ldiki, korxonalarini tashkil etish va qayta tuzish jarayonlarining raqamlashtirilishi biznes yuritishni yengillashtirib, vaqt va moliyaviy sarflarni

keskin kamaytirdi. 2024-yilda “E-Moliya” va “1C–Paxta” tizimlarini joriy etish moliyaviy hisob-kitoblarda shaffoflikni ta’minladi, foyda rentabelligini 113 foizga oshirdi va aylanma mablag’ aylanishini 39 foizga qisqartirdi.

Paxta tozalash korxonalarida moliyaviy boshqaruvning takomillashuvi natijasida:  
aktivlar real baholanmoqda,  
kredit yuklamalari qisqartirilmoqda,  
investitsion muhitda ishonch darajasi oshmoqda.

Umuman olganda, paxta tozalash sohasidagi kelgusidagi islohotlar korxonalarni tashkil etish va tugatish jarayonlarini moliyaviy monitoring platformalari orqali avtomatlashtirish, amortizatsiya siyosatini qayta ko’rib chiqish va kapital tuzilmasini optimallashtirish yo’nalishlarida davom ettirilishi zarur. Shu orqali iqtisodiy barqarorlik va eksport salohiyatini yanada oshirish imkoni yaratiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–4947-son Farmoni — “O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”, 2017-yil 7-fevral.

2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3133-son Qarori — “Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo’llab-quvvatlash chora-tadbirlari to’g’risida”, 2023-yil 18-fevral.

3.Murodov, O.J., Rajabov, O.I .Results of an experimental study of the load and the character of a multi-face net vibrations on elastic cotton cleaner supports// Izvestiya Vysshikh Uchebnykh Zavedenii, Seriya Teknologiya Tekstil'noi Promyshlennosti 395(5), pp. 191-197. 2021.

4.“Korxonalar to’g’risida”gi Qonun — O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to’plami, 2020-yil.

5.Karimov A., Jo’rayev M. — Korxonalarni moliyaviy boshqarish nazariyasi va amaliyoti, Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.

6.Murodov O.J. Yangi O’zbekiston iqtisodiyotida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish omillari: Islohotlar, sertifikatlash va iste’molchi talablari integratsiyasi. Guliston davlat universiteti axborotnomasi. Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2025. № 3. 193-197 bet.

7.“O’zpxatasanoat” AJ hisobotlari — Moliyaviy ko’rsatkichlar va investitsion loyihalar tahlili, 2018–2024-yillar.

8.World Bank. Uzbekistan: Industrial Modernization and Private Sector Development Report, Washington D.C., 2023.